



## Mustaqillik davri she'riyatida poetik obrazga munosabat

Saloxiddinova Nigoraxon Inomjonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDOGOGY” NOTM.

Andijon

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek adabiyotshunos olimlarining poetik obraz haqidagi fikrlari, mustaqillik davri o'zbek she'riyatida poetik obrazning estetik ahamiyati haqida ayrim mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Badiiy obraz, estetik ta'sirchanlik, ritm, shakl va mazmun, poetik obraz turlari.

Badiiy obrazning estetik ta'sirchanligi haqida mulohaza yuritgan adabiyotshunos T. Boboev shunday yozadi: “Badiiy obraz kitobxonda, albatta, qandaydir estetik hissiyot (emotsiya) uyg'otishi kerak. Chunonchi, hayotdagi xunuklikni aks ettirgan badiiy obraz kitobxonda nafrat uyg'otsa, go'zallikni ifodalagan obraz estetik zavq-shavq beradi. Yozuvchi badiiy obraz orqali estetik idealini tasvirlaydi: ideal ijobiy obrazda bevosita, salbiy obrazda bilvosita ifodalanadi. Yozuvchi har bir obrazga ehtiros bilan yondashishi, unga faol munosabatda bo'lishi lozim. Shunga ko'ra, u yoki bu asarni o'qiganimizda biz ham badiiy obraz faoliyatiga befarq qaray olmaymiz: ulardan yo zavqlanamiz yoki nafratlanamiz<sup>1</sup>. Ko'rinadiki, obraz ijodkorning badiiy niyati bilan asarda ezgulik va go'zallikni yoki yovuzlik va tubanlikni ifodalab kelishi mumkin. Umuman olganda, shoiraning ushbu to'plami mazmun siqirligi va shakl murakkabligi bilan ham alohida ahamiyatga egadir.

Ritmlar qanchalik boy bo'lmasin, shakl va mazmun qanchalik mukammal bo'lmasin, so'zlar qanchalik jilolanmasin, she'riyat tasvirsiz o'likdir. Shu bilan birga, she'rda qanday g'oya ilgari surilmasin, uni ifodalashda qo'llanilgan har qanday obraz kishiga hissiy va ma'naviy ta'sir etishi, estetik zavq berishi ham kerak. Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinadiki, obraz o'zining mukammalligi va chegarasizligi bilan she'riyatning qon tomiriga aylanadi. Bu esa badiiy asar umrining yanada bardavom bo'lishida asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Chunki obraz har doim go'zallikni, kenglikni, insonni va uning ichki dunyosini o'zida mujassam etadi. O'rni bilan keng fikrlashga, go'zallikni his qilishga, xatolardan xulosa chiqarishga sabab bo'ladi.

Har bir davrda yaratilgan asarlar yuzasidan badiiy adabiyotda ilmiy qarashlarning shakllanib ulgurangani tasodifiy hodisa emas. Buning boisi davr muayyan darajada ijodkorga ta'sir o'tkazadi va yoki ijodkor davrning ijtimoiy qonuniyatlarini adabiyotga olib kiradi. Shu tariqa badiiy adabiyotning mazmun-mohiyati o'zida xilma-xil ifodalar, obrazlar, timsollar, ramzlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu esa tadqiqotchilar oldida o'rganilishi kerak bo'lgan dolzarb masalaga aylanadi.

Poetik obraz davrga hamohang tarzda tahlil qilinar ekan, uning estetik ta'sir kuchi ham shunga monand tarzda o'zgarib turuvchi hodisa ekanligini esdan chiqarmasligimiz kerak. Bu haqida adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldosh quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “...istiqlol she'riyati har bir o'zbekni o'z ko'ngliga yaqinlashtirdi, uning adoqsiz labirintlarini, purviqor cho'qqilarini, tubsiz

<sup>1</sup> Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – B.50.



teranliklarini, xullas, alohida qalbning naqadar poyonsiz va serqirra ekanligini aks ettirdi. Uning har bir qirrasini olam hodisalari qadar murakkab va jilvagar ekanligini anglatdi. Odamni bilish olamni bilishdan mushkulroq ekanligini ifodaladi. Binobarin, shu xil xossalarga ega odamning g'oyat mukarram zotligi tuydirildi"<sup>2</sup>. Olim bugungi davr ijodkorlari olamni poetik idrok etishda yangi bosqichga ko'tarilib borayotganini alohida ta'kidlaydi. Fikrlarining isboti sifatida she'riyatda hissiyotning chuqurlashuvini, shaxs ruhiyatining olis nuqtalarigacha poetik kashf etilayotganligini va ko'ngilni poklashga intilish istagi ortib borayotganligi aytiladi.

M.Abdurahmonova: "Inson qalbi sirlarining poyoniga yetib bo'lmaydi. Negaki, davrlar osha insonning onggi va tushunchasi o'sib-o'zgarib borgan kabi, qalbi ham o'zgarib boradi. Ijtimoiy hodisalarning tasvirida o'sha davr kishilari ma'naviy-ruhiy dunyosining talqini hal qiluvchi ahamiyatga ega. Turli kechinmalar, hissiyotlar, fikr-o'ylargina xarakterga individuallik, badiiy asarga yorqinlik berishi"<sup>3</sup>ni alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, poetik tafakkurda yuz berayotgan o'zgarishlar badiiy asarning mazmun va shaklida yangilanishlarni qamrab olgan holda, o'quvchining adabiy-estetik ehtiyojlariga xizmat qilishi zarur va muhimdir. Ijodkor o'zi anglagan hayot oqimi voqealari, jarayonlar va hodisalarni o'zida umumlashтира olgan obraz yaratishi barobarida shaxs kechinmasi, his-tuyg'usi mujassamlashgan ruhiy-psixologik, badiiy-estetik jarayonlarni bir butunlikda yetkaza olishi kerak.

Badiiy obrazni adabiyotshunoslikning markaziy muammosi sanagan olim H.Umurov quyidagilarni yozadi: "obraz" deganda inson ongida in'ikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birga, so'z vositasida san'atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan (bichib to'qilgan) va tasvirlangan hayot tushuniladi"<sup>4</sup>. Bundan kelib chiqib shularni aytishimiz mumkinki, ijodkorning xayolot mahsuli badiiylikka yo'g'rilib, obraz darajasiga ko'tarila oladi. Endi bunday obraz o'zida ulkan poetik ma'noni mujassamlashtiradi. eng qizig'i, ijodkor ongi mahsuli hisoblangan bunday obrazlar har bir yozuvchi ijodida takrorlanmasligi bilan katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, obraz ijodkorning sub'ektiv, ma'naviy va ruhiy haqiqatidir. Insonning ichki dunyosini taftish qilish va haqiqatni anglash harakati shoirmi tashqi dunyoda mavjud bo'lgan haqiqatga bevosita yuzlashtiradi. Ana shu jarayon hosilasi sifatida paydo bo'lgan, ideal asosda tanlangan tasvir o'zida ijtimoiy-falsafiy, ruhiy-psixologik qonuniyatni umumlashтираadi. Bunda ijodkor his etilgan kechinmani va g'oyaviy-badiiy mazmunni metaforiklik va assotsiativlik asosida turli badiiy obrazlar (detal obrazlar, motiv obrazlar, ramzlar, assotsiativ obrazlar, topos va arxetiplar) vositasida beradi. Individual yondashuv vositasida paydo bo'lgan poetik obrazlar orqali shoirlar o'zi ifodalamoqchi bo'lgan badiiy konsepsiyani resipientga ta'sirchan yetkazadi. Bu esa o'quvchining, avvalo, go'zallikni anglashiga, undan zavq olishiga sabab bo'ladi.

## Adabiyotlar

1. Abdurahmonova M. Ruhiy dunyo tasviri. – Toshkent: O'zbekiston, 1977. – B.31.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – B.50.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,

<sup>2</sup> Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B.102.

<sup>3</sup> Abdurahmonova M. Ruhiy dunyo tasviri. – Toshkent: O'zbekiston, 1977. – B.31.

<sup>4</sup> Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.32.



4. 2004. – B.32.
5. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.– B.102.